


QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-fevral oylari uchun ma'lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, Xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Viloyatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, Viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatning bu borada so'nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlar 2020-yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasini (matnda TSA) 88,4 mln. AQSh dollariga yetishini va 2019-yilga nisbatan 24 mln. AQSh dollariga yoki 37,3 % ga oshishini ta'minladi.

QASHQADARYO
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI VA
BALANSI
(mln. AQSh
dollari)






TSAda eksport hajmi 43,0 mln. AQSh dollariga (o`lish sur`ati – 141,5 %) va import hajmi 45,4 mln. AQSh dollariga yetdi. Hisobot davrida -2,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

2019-yil Yanvar-fevral

2020-yil Yanvar-fevral

**TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(mln. AQSh
dollari)**



So`nggi yillarda davlatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.



Qashqadaryo viloyati jahonning 40 dan ortiq davlatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (26,8 %), Rossiya Federatsiyasida (10,2 %), Afg'oniston (5,4 %), Turkiyada (6,3 %), Eron, Islom Respublikasida (11,1 %) va Belarusiyada (3,1 %) qayd etilgan.

QASHQADARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI BO`LGAN DAVLATLAR (2020-yil yanvar-fevral ming AQSh dollari, ulush %)

| Top-8 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulush, % |
|---------------------------------|---------|---------|---------|----------|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 23706,7 | 5379,3 | 18327,5 | 26,8 |
| Rossiya Federatsiyasi | 8997,2 | 4925,4 | 4071,8 | 10,2 |
| Afg'oniston | 4738,2 | 4738,2 | - | 5,4 |
| Turkiya | 5571,8 | 4508,4 | 1063,4 | 6,3 |
| Eron, Islom Respublikasi | 9801 | 9717,3 | 83,7 | 11,1 |
| Belarusiya | 2720,8 | 57,6 | 2663,3 | 3,1 |
| Indoneziya | 3212,5 | 3212,5 | - | 3,6 |
| Qozog'iston | 3246,6 | 2788,2 | 458,4 | 3,7 |

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha asosiy xamkor davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi (23706,7 ming AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (8997,2 ming AQSh dollari), Afg'oniston (4738,2 ming AQSh dollari), Turkiya (5571,8 ming AQSh dollari) va Belarussiya (2720,8 ming AQSh dollari) bu esa jami tashqi savdo aylanmasining 51,7 % ni tashkil qildi.

| Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
|------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|
| Xitoy Xalq Respublika | 26512,6 | 18776,4 | 23706,7 |
| Eksport | 18004,2 | 4817,3 | 5379,3 |
| Import | 8508,4 | 13959,1 | 18327,5 |
| Saldo | 9495,7 | -9141,8 | -12948,2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 8989,3 | 7516 | 8997,2 |
| Eksport | 3995,9 | 4146,6 | 4925,4 |
| Import | 4993,4 | 3369,4 | 4071,8 |
| Saldo | -997,5 | 777,1 | 853,5 |
| Afg'oniston | 2480,5 | 1125,6 | 4738,2 |
| Eksport | 2480,5 | 1125,6 | 4738,2 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 2480,5 | 1125,6 | 4738,2 |
| Turkiya | 7725,1 | 9912,5 | 5571,8 |
| Eksport | 5173,5 | 7845,7 | 4508,4 |
| Import | 2551,6 | 2066,8 | 1063,4 |
| Saldo | 2622 | 5778,9 | 3445 |
| Eron | 4613,5 | 1715 | 9801 |
| Eksport | 4613,5 | 1396,1 | 9717,3 |
| Import | - | 318,9 | 83,7 |
| Saldo | 4613,5 | 1077,2 | 9633,6 |
| Belarussiya | 491,3 | 391,6 | 2720,8 |

**QASHQADARYO VILOYATI
BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG YUQORI
BO'LGAN DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-fevral
ming AQSh dollari, ulush %)**

| | Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
|--|---------------------|-------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|
| | Eksport | 27,3 | 36,6 | 57,6 |
| | Import | 464 | 355 | 2663,3 |
| | Saldo | -436,7 | -318,4 | -2605,7 |
| | Pokiston | 534,8 | 712,2 | 2480,8 |
| | Eksport | 534,8 | 521,7 | 2476,6 |
| | Import | - | 190,5 | 4,2 |
| | Saldo | 534,8 | 331,2 | 2472,4 |
| | | | | |
| | Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
| | Indoneziya | 4711,9 | 4065,1 | 3212,5 |
| | Eksport | 4711,9 | 4065,1 | 3212,5 |
| | Import | - | - | - |
| | Saldo | 4711,9 | 4065,1 | 3212,5 |
| | Qozog'iston | 5315,2 | 4702,4 | 3246,6 |
| | Eksport | 2868,1 | 2872,5 | 2788,2 |
| | Import | 2447,1 | 1829,9 | 458,4 |
| | Saldo | 421 | 1042,7 | 2329,8 |
| | Qirg'iziston | 389,1 | 1826,1 | 1322,1 |
| | Eksport | 136,1 | 1826,1 | 245 |
| | Import | 253 | - | 1077,1 |
| | Saldo | -116,9 | 1826,1 | -832,2 |
| | Hindiston | 130,2 | 39,9 | 4553,4 |
| | Eksport | - | 38,5 | 156,8 |
| | Import | 130,2 | 1,4 | 4396,6 |
| | Saldo | -130,2 | 37,1 | -4239,7 |

QASHQADARYO VILOYATI
BILAN TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-fevral
ming AQSh dollari)

QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
fevral ming AQSh
dollari)

| Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
|----------------------------|-------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|
| Italiya | 255,2 | 289,8 | 975,9 |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 255,2 | 289,8 | 975,9 |
| Saldo | -255,2 | -289,8 | -975,9 |
| Germaniya | 1567,4 | 476,3 | 7158,6 |
| Eksport | - | - | 18,8 |
| Import | 1567,4 | 476,3 | 7139,9 |
| Saldo | -1567,4 | -476,3 | -7121,1 |
| Ukraina | 796,6 | 2706,1 | 718 |
| Eksport | 93,1 | 93,8 | 656,6 |
| Import | 703,5 | 2612,3 | 61,4 |
| Saldo | -610,4 | -2518,4 | 595,2 |
| Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
| Koreya respublikasi | 50 | 1521 | 1149,6 |
| Eksport | 0,1 | 26,2 | 19,4 |
| Import | 50 | 1494,8 | 1130,2 |
| Saldo | -49,9 | -1468,6 | -1110,8 |
| Litva | 218,7 | 230,8 | 811,4 |
| Eksport | 211,7 | 9,7 | 82,7 |
| Import | 7,0 | 221,1 | 728,7 |
| Saldo | 204,7 | -211,3 | -646 |
| Malayziya | - | - | 433 |
| Eksport | - | - | 433 |
| Import | - | - | - |

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI ENG
YUQORI
BO`LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil yanvar-
fevral ming AQSh
dollari)**

| Davlatlar | 2018-yil yanvar- fevral | 2019-yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
|-------------------|-------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|
| Saldo | - | - | 433 |
| Tojikiston | 653,6 | 746,6 | 2177 |
| Eksport | 645,8 | 622,7 | 2177 |
| Import | 7,8 | 123,9 | - |
| Saldo | 637,9 | 498,8 | 2177 |
| Avstraliya | - | - | 378 |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | - | 378 |
| Saldo | - | - | -378 |
| Singapur | 6,2 | 159,6 | 448 |
| Eksport | 6,2 | 159,6 | 448 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 6,2 | 159,6 | 448 |


**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
(2020-yil yanvar
mIn AQSh dollari)**

Qashqadaryo viloyatining TSA dinamikasi tahlili 2020-yilda 2019 yilning shu davriga nisbatan eksport va import hajmlari o`shish ko`zatildi. 2019-yilga nisbatan TSA 37,3 foizga oshdi.

TSAning uchdan bir qismini MDH davlatlari tashkil etib, so`nggi yillarga nisbatan asta-sekin kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Bu esa o`z navbatida boshqa xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarning kengayayotganidan dalolat bermoqda.

**QASHQADARYO
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
(2020-yil yanvar-
fevral mln AQSh
dollari)**




**2018-yil
yanvar-fevral**

**2019-yil
yanvar-fevral**

**2020-yil
yanvar-fevral**

Viloyatimizda tashqi savdoni qo`llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo`yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 22,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi o`tgan yilga nisbatan o`shish 105,0 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2020-yilda MDH davlatlariga nisbatan tezroq o`sdii (o`shish sur`ati 150,4 %) va jami TSAdagi ulushi 77,9 %ni tashkil etdi.


QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-fevral)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o`shishiga ko`maklashadi va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksportyorlar sonini

30 dan ortiq va ular tomonidan 43,0 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilning shu davriga nisbatan o`shish 41,5 %) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 96,9 % ni tashkil etib, ular asosan to`qimachilik buyumlari (21,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari (12,3 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (16,8 %), energiya manbalari (12,4 %), Qora va rangli metall (0,2 %) hamda boshqalar (34,0 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-fevral,
ulush %)



**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-fevral)**

| Tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % | | |
|---|-------------------|----------------|------------------|---------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami eksport | 43038,8 | 11100,4 | 31938,4 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Paxta tolasi | 9136,3 | - | 9136,3 | 21,2 | - | 28,6 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 5304,2 | 1906,0 | 3398,2 | 12,3 | 17,2 | 10,6 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 7219,9 | 3162,0 | 4057,9 | 16,8 | 28,5 | 12,7 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 5320,3 | 1924,0 | 3396,3 | 12,4 | 17,3 | 10,6 |
| Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 68,4 | 68,4 | - | 0,2 | 0,6 | - |
| Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari | 9,0 | 9,0 | - | - | 0,1 | - |
| Xizmatlar | 1347,6 | 993,0 | 354,6 | 3,1 | 8,9 | 1,1 |
| Boshqalar | 14633,1 | 3038,0 | 11595,1 | 34,0 | 27,4 | 36,4 |

MDH davlatlari va boshqa davlatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH davlatlariga eksportning 104,0 % xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha Kimyo mahsulotlari va buyumlarilari hamda meva-savzavot va to`qimachilik mahsulotlariga to`g`ri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O`SISH
SUR`ATLARI
(2020-yil
yanvar-fevral)**

| Tarkibi | O`tgan yilga nisbatan, % | | |
|--|--------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami | 141,5 | 114,1 | 154,4 |
| shu jumladan: | | | |
| Paxta tolasi | 242,0 m. | - | 242 m. |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 66,4 | 63,8 | 68,0 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 92,4 | 85,9 | 98,3 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 5,0 m. | 10,3 m. | 3,8 |
| Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar | 85,5 m. | 85 m. | - |
| Rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar | - | - | - |
| Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari | 4,0 m. | 4,0 m. | - |
| Xizmatlar | 169,6 | 170,2 | 167,7 m. |
| Boshqalar | 115,3 | 133,1 | 111,4 |


2020-yil yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning shu davriga nisbatan, qora va rangli metallar, paxta tolasi hamda mashina va asbob uskunalaridan tashqari barcha tovar va xizmatlarda o`shish kuzatildi.

**EKSPORT
QILINGAN AYRIM
TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI ULUSHI, %
(2020-yil yanvar-
fevral)**

| Tarkibi | 2018-yil yanvar- fevral | 2019 yil yanvar- fevral | 2020-yil yanvar- fevral |
|---|-------------------------------|-------------------------------|-------------------------------|
| Jami | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Paxta tolasi | 43,2 | 0,1 | 21,2 |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 9,3 | 26,3 | 12,3 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 19,1 | 25,7 | 16,8 |
| Qora metallar va rangli metallardan tayyorlangan buyumlar | - | - | 0,2 |
| Energiya manbalari | 1,4 | 3,6 | 12,4 |
| Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari | 0,2 | - | - |
| Xizmatlar | 2,1 | 2,6 | 3,1 |
| Boshqalar | 24,7 | 41,7 | 34,0 |


So`nggi uch yilda MDH davlatlariga eksport hajmi oshdi. Mos ravishda boshqa davlatlarning jami eksportdagi ulushi 74,2 % ni tashkil etdi.

MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(2020-yil yanvar-
fevral,
ming AQSh
dollari,)



2019-yil bilan taqqoslaganda, tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining 22,6 %), Xitoy xalq Respublikasi (12,5 %) Rossiya Federatsiyasi (11,4 %), Turkiya (10,5 %), Indoneziya (7,5 %), Qozogiston (6,5 %) va Pokiston (5,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 76,8 foizni tashkil etmoqda.

**VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar-fevral)**



**QASHQADARYO
VILOYATINING
ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARIGA
AMALGA
OSHIRILGAN
EKSPORT HAJMI
VA O`SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-fevral)**

| Davlatlar | Ming AQSh dollari | | O`shish sur`ati, % | | O`rni | |
|-----------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|
| | 2019-yil yanvar-fevral | 2020-yil yanvar-fevral | 2019-yil yanvar-fevral | 2020-yil yanvar-fevral | 2019-yil yanvar-fevral | 2020-yil yanvar-fevral |
| Eron | 1396,1 | 9717,3 | 30,3 | 7,0 m. | 7 | 1 |
| Xitoy | 4817,3 | 5379,3 | 26,8 | 111,7 | 2 | 2 |
| Rossiya Federatsiyasi | 4146,6 | 4925,4 | 103,8 | 118,8 | 3 | 3 |
| Afg'oniston | 1125,6 | 4738,2 | 45,4 | 4,2 m. | 8 | 4 |
| Turkiya | 7845,7 | 4508,4 | 151,7 | 57,5 | 1 | 5 |
| Pokiston | 521,7 | 2476,6 | 97,6 | 4,7 m. | 10 | 8 |
| Indoneziya | 4065,1 | 3212,5 | 86,3 | 79,0 | 4 | 6 |
| Qozog'iston | 2872,5 | 2788,2 | 100,2 | 97,1 | 5 | 7 |
| Ukraina | 93,8 | 656,6 | 100,8 | 700,0 | 12 | 10 |
| Malayziya | 0,0 | 433,0 | - | - | 19 | 12 |
| Tojikiston | 622,7 | 2177,0 | 96,4 | 3,5 m. | 9 | 9 |
| Singapur | 159,6 | 448,0 | 25,7 m. | 2,8 m. | 11 | 11 |
| Qirgiziston | 1826,1 | 245,0 | 13,4 m. | 13,4 | 6 | 14 |
| Litva | 9,7 | 82,7 | 4,6 | 8,5 m. | 18 | 20 |
| Hindiston | 38,5 | 156,8 | - | 4,1 m. | 16 | 16 |
| Turkmaniston | 80,7 | 85,9 | 84,2 | 106,4 | 13 | 19 |
| Chexiya | 54,0 | 135,7 | 68,5 | 2,5 m. | 15 | 17 |
| Moldova | 19,5 | 164,7 | 15,2 | 8,4 m. | 17 | 15 |
| BAA | 60,6 | 134,6 | 70,6 | 2,2 m. | 14 | 18 |
| Filippin | - | 251,9 | - | - | 20 | 13 |

Ushbu davlatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan energiya tashuvchi va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 1347,6 ming AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,1 %ini tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 69,6 % ga o`sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining ulushi transport (54,4 %), Safarlar (11,5 %), moliyaviy xizmat (9,5 %) va qurilish xizmatlari (4,3 %) hissasiga to`g`ri kelgan.

XIZMATLAR
EKSPORTINING
ULUSHI %



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 2683,4 ming dollarlik qiymatli 2640,2 ming tonna meva-sabzavot eksport qilingan.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg`iziston, Qozog`iston, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(ming AQSh dollari, yanvar-fevral, 2020 y.)

MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
EKSPORT
TOVAR TURLARI
BO'YICHA ming
AQSH Doll.
(yanvar-fevral)



Piyoz, sarimsoq



Boshqa mevalar




Uzum



Yer yong'oq



Karam



Meva-sabzavot eksporti qiymatda eng ko'p Pokiston Respublikasi hissasiga (jami meva-sabzavot eksportidan 43,2 %), to'g'ri kelmoqda.

MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
ASOSIY
DAVLATLARGA
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-fevral)

| Davlatlar | 2019-yil yanvar-fevral | | | 2020-yil yanvar-fevral | | |
|-----------------------------|------------------------|-------------------|------------|------------------------|-------------------|------------|
| | ming tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % |
| Pokiston | 24 | 14,6 | 0,2 | 974,7 | 1242,5 | 30,7 |
| Qozog'iston | 1958 | 586,8 | 8,1 | 1331,6 | 1170,6 | 28,9 |
| Afg'oniston | 165,4 | 109,9 | 1,5 | 884,3 | 866,2 | 21,4 |
| Rossiya Federatsiyasi | 947,9 | 505,3 | 7,0 | 1176,3 | 541,5 | 13,4 |
| Birlashgan Arab Amirliklari | 22 | 60,6 | 0,8 | 44,6 | 134,6 | 3,3 |
| Xitoy | 51,1 | 55,8 | 0,8 | 51,6 | 51,6 | 1,3 |
| Eron, Islom Respublikasi | 138,0 | 138,0 | 1,9 | 23,0 | 23,0 | 0,6 |
| Moldova, Respublika | - | - | - | 15,0 | 9,0 | 0,2 |
| Ukraina | 31,2 | 20,2 | 0,5 | 15,4 | 10,5 | 0,2 |

**MEVA -
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARINING
ASOSIY
DAVLATLARGA
EKSPORT
GEOGRAFIYASI
(yanvar-fevral)**


| Davlatlar | 2019-yil yanvar-fevral | | | 2020-yil yanvar-fevral | | |
|---------------------|------------------------|-------------------|------------|------------------------|-------------------|------------|
| | ming tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % | ming tonna | ming AQSh dollari | ulushi*, % |
| Ozarbayjon | 21,8 | 28,2 | 0,4 | - | - | - |
| Bolgariya | 67,5 | 314,2 | 4,3 | - | - | - |
| Gruziya | 21,5 | 1,9 | - | - | - | - |
| Koreya Respublikasi | 35,9 | 25,1 | 0,3 | - | - | - |
| Qirg'iziston | 90,5 | 1388,5 | 19,2 | - | - | - |
| Polsha | 375,3 | 30,5 | 0,4 | - | - | - |
| Tojikiston | - | - | - | 316 | 0,3 | - |

QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-fevral)

Viloyatda import o`rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag`batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so`nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 45384,6 ming AQSh dollari (2019-yilning shu davriga nisbatan 33,6 % ga o`shish kuzatildi) tashkil qildi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (82,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (4,1 %).

IMPORT TARKIBI (ulush %)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko`ra, 2020-yilda import qilingan tovarlar hajmi, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11409,1 ming AQSh dollariga ko`payib va 45384,6 ming AQSh dollarini tashkil etdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDA
N IMPORT
TARKIBI ming
AQSh dollari
(2020-yil
yanvar-fevral)**

| Tarkibi | ming AQSh dollari | | | umumiy hajmga nisbatan, % | | |
|---|-------------------|----------------|------------------|---------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami import | 45384,6 | 8414,4 | 36970,2 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari | 703,6 | 339,3 | 364,3 | 1,6 | 4,0 | 1,0 |
| Kimyo mahsulotlari va buyumlari | 1866,2 | 503,0 | 1363,2 | 4,1 | 6,0 | 3,7 |
| Energiya manbalari va neft mahsulotlari | 1143,9 | 1077,9 | 66,0 | 2,5 | 12,8 | 0,2 |
| Qora va rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar | 1501,3 | 424,0 | 1077,3 | 3,3 | 5,0 | 2,9 |
| Mashina va asbob-uskunalar | 37415,0 | 4188,3 | 33226,7 | 82,4 | 49,8 | 89,9 |
| Xizmatlar | - | - | - | - | - | - |
| Boshqalar | 2754,6 | 1881,9 | 872,7 | 6,1 | 22,4 | 2,3 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, mashina va asbob-uskunalar (49,8 %), Energiya manbalari (12,8 %) va kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (6,0 %) MDH davlatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy davlatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (89,9 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar (3,7 %) hissasiga to`g`ri keladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-83-91**